



Jumaniyozova Munis Alisher qizi

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti 204-guruh talabasi

Tel: +99893 098 99 15

E-mail: munis9915@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdam asarlarining o'ziga xosligi adabiyotshunoslar tomonidan adib ijodini yaqindan o'rganib, tahlil etib kelayotgan adabiyotshunoslardan biri ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikoya, hayot hodisalari, epik janr, ayol obrazi, badiiy tafakkur, bosh qahramon, obraz.

Kirish.

Bugungi kunda o'zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug'bek Hamdam o'zining chuqur sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq og'ziga tushgan yozuvchilardan biridir. Alanga va nur bir-biri bilan qanchalik uyg'unlashgan bo'lsa, hayot bilan faoliyat ham bir-biriga shu qadar mustahkam bog'langan. Nimaiki nur sochsa, shubhasiz, yoritadi, nimaiki yashayotgan ekan, so'zsiz harakatda bo'ladi. Hayot kabi ijodiy jarayon ham shunchalik poyonsiz, betakror va ko'p qirraliki, unda har bir yozuvchining ehtiyojiga, iqtidoriga yarasha o'rin hamma vaqt topiladi. Ijod mahsuli bo'lgan badiiy adabiyot fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan yog'du. Zero, badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga bo'ysunadi. Jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar badiiy adabiyotda ham o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, obrazlar tizimini to'g'ri tushunmoq, tili, jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo'ladi. "Davr va adabiyot g'oyat murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o'zgarib turishi bo'lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o'zi yaratilgan zamonga qaraganda ko'proq yashashga intilishi, barqarorroq bo'lishga urinishidir. Zamonda turib zamoni ko'rish qiyin, uning biror jihatini baholash yanada mushkul. Shuning uchun istiqlol davri adabiyoti, unga xos belgilar haqida gapirish g'oyat mas'uliyatlidir." Uning "Muvozanat", "Isyon va Itoat", "Sabo va Samandar" kabi romanlari, "Uzoqdagi Dilnura" qissa va hikoyalar to'plami XX



asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega. Shuningdek, "Tangriga eltuvchi isyon", "Atirgul" va "Seni kutdim" she'riy to'plamlari, "Badiiy tafakkur tadriji", "Yangilanish ehtiyoji", "Yangi o'zbek she'riyati" nomli monografiyalari ham nashr etilgan. Ulug'bek Hamdam zamonaviy o'zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko'p o'girilayotgan va O'zbekistondan tashqarida e'tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biridir. Uning "Isyon va itoat" romani, "Yolg'izlik" qissasi, o'nga yaqin hikoyasi va she'rlari ruschaga tarjima qilindi. Ijodkorning "Tosh" degan hikoyasi va bir qancha she'rlari ingliz tiliga o'girildi. "Muvozanat" romani va "Tosh" hikoyasi Amerikada e'tirof etildi.

Ulug'bek Hamdamning ijodi adabiyotshunoslar nazariga tushgan. Uning ijodi borasida zukko olim Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov (ikkovlarining joylari jannatda bo'lsin), Umarali Normatov kabi adabiyotshunoslar bitgan yigirmaga yaqin maqola o'zbek va rus tillarida e'lon etilgan. "Tanqidlarda jo'yali tuzatishlar albatta, bor. Shukrki, buni qabul qilmaslik darajasida ojiz emasman. Ayni damda romanning tabiati, yozuvchining individual uslubi, so'z qo'llashdagi o'ziga xosliklari bilan bog'liq kurakda turmaydigan yozg'irishlar, yo'q joydan nuqson qidirishga ruju qo'yishlar ham mavjudligini ham dangal aytish kerakki, bu tutimning sog'lom tanqidga mutlaqo aloqasi yo'q..."

Amakisi dunyodan o'tganida o'zi tug'ilib-o'sgan qishloqqa borgan jiyan xotiralari bosh ko'taradi. Xotiralarga sho'ng'ir ekan, mehribon bir inson og'ir og'riqqa muftalo bo'lib, davolash uchun ozgina pul so'raganda, bu iltimosni unutib yuborgani uchun o'zini ayblaydi. Ayniqsa, amakisining kenja qizi Dilnuraning o'rtanishlarini ko'rib chidayolmaydi.

Ulug'bek Hamdam asarlarining o'ziga xosligi adabiyotshunoslar tomonidan tez-tez takrorlanmoqda. Rahimjon Rahmat adib ijodini yaqindan o'rganib, tahlil etib kelayotgan adabiyotshunoslardan biri. U Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi qahramoni haqida shunday yozadi: "Yolg'izlik"ning ismsiz, qiyofasiz, makon va zamonsiz qahramoni balchiqqa tushib qolgan katta baliqqa o'xshaydi. Bechora suzay desa, suzolmaydi, o'lay desa, buning ham iloji yo'q. Arosat! Qahramonning o'y-fikrlari va hayot tarzidagi parchalanish ham, meningcha, uni yolg'izlikka giriftor etgan. U suygan mashg'uloti – ijod uchun imkon va sharoit topolmay qiynaladi. Oddiy turmush tashvishlarini bartaraf etish uchun butun ruhiy va jismoniy quvvati sarf bo'layotganidan azob chekadi."



Adabiyotshunos adibning asar yaratishdan tutgan maqsadi haqida shunday fikrga boradi:

"Uning badani, ruhi va aqli bir butunlik ichidagi uchta mustaqil bo'lak. Ruhning ishi – Oллоhga iltijo, aql turmush tashvishlari bilan kurashadi, badan esa go'zal va begona ayollar tomon talpinadi. "Yolg'izlik"da inson qismatiga xos mana shu ziddiyat ta'sirli aks etgan. Yozuvchining asosiy maqsadi ham shu narsani tahlil etishdir, ehtimol..."

Adabiyotshunos Bahodir Karim fikricha esa "Yolg'izlik" qahramoni jazavaga tushganda, isyoni aqli chegarasini yorib chiqqanda va yoki qandaydir alam - iztirob ichida qolganida tilini tiyib turmaydi. Dili tilga ko'chadi."

"Ko'ngilga mos muhitning, ijod uchun qulay sharoitning yo'qligi qahramonni ko'p qiynaydi. U faqirlikka, qo'likaltalikka la'natlar yog'diradi. Qissada ko'ngil va voqelik muvozanatidagi buzilishlar ifodasi uchun qahramonning oilaviy turmush tarzi ham beriladi," deya fikrini davom ettiradi adabiyotshunos olim Bahodir Karim. "Natijada, romanda tasvirlangan har qanday voqelik faqat tashqi xususiyat, yagona alomat bilangina bog'liq emasligi; totalitar tuzum va o'tish davridagi og'ir turmush voqealarini badiiy o'zlashtirish, ularni zamondoshlarning ichki dunyosi, ruhiy olami orqali atroflicha taftish etishda keng imkoniyatli ramziy obrazlardan foydalanishning o'ziga xos usullari; joy nomlari, tanlangan ismlar qahramonlarning ichki va tashqi konfliktlarida chuqur majoziy ma'no kasb etganligi; eng muhimi, Olam muvozanatining asosi, uning me'yorini ta'minlash vazifasi yuklangan ulug' insonlar qismati chuqur badiiy - falsafiy mazmunda ifodalanganligi ma'lum bo'ldi. Ochig'i, asarning bu xususiyatlarini uni ilk bor o'qiganimda ilg'ay olmagandim."

Ulug'bekning asarlari bilan tanishayotgan zukko o'quvchi uning o'ziga xos yo'ldan borish istagini sezadi. Adiblik va shoirlik bilan birga adabiyotshunoslikni ham qo'shchib olib borayotgan Ulug'bek Hamdam bu sohaning o'z yo'li haqida fikrlaydi:

"Nahotki, adabiyotshunosligimizda o'z yo'limiz yo'q?" degan savol tug'iladi. Sharq dunyoqarashi, diniy, hududiy va milliy qadriyatlarga suyangan o'zimizning adabiy-tanqidiy tafakkurimiz nahotki korimizga yaramasa? Agar hammasini chetdan – rus, nemis, ingliz, frantsuz, ispan va amerika singari ilg'or mamlakatlarning adabiyotshunosligidan "qarz" olib turishda davom etaversak, oqibati nima bo'ladi? "Qarz" olingan andozalar milliy ruhda yozilgan badiiyat namunalari har doim ham beka mu ko'st sinchiklab, tushuntirib



berolarmikan? Sharqona, o'zbekona asarlar xarakterini, ularning nozik tabiatini a'lo darajada ochib, kashf etolarmikin?.."

Adabiyotshunosning fikri chuvalanmaydi, aksincha to'g'ri yo'l izlaydi:

"Mana shularni o'ylaganda, ko'ngildan beixtiyor ravishda o'zimiznikini yaratish istagi o'tib qoladi. Aslida, ichkarida buning ham eng to'g'ri yo'l emasligini tushunib turamiz. Xo'sh, nega? Chunki madaniy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy jihatdan o'zining boqiy dunyosida qolish degani pirovardida halokatga yuz tutishdir. Sharqni qaytadan kashf qilamizmi, G'arbdan o'rganishda davom etamizmi, hamma gap ana shu harakatlarimizning me'yorida: nimani, qayerda va qanday o'rganishimiz, uni qanday maqsadlarda ilmga tadbiq etishimiz ertangi adabiyotshunosligimizning bo'yu bastini belgilab berishiga shubha qilmayman."

... O'quvchi amakisining o'limi bois bolalik xotiralari tinchlik bermayotgan, o'zidan o'zi norozi Kozimning ko'ngliga hech qanday ko'ngilxushlik sig'masligiga ishonadi.

Lekin yordamchisi ishxona mahsulotlarini tarqatadigan bir sheriklari ziyofatga taklif etganini ustamonlik bilan eslatuvidan so'ng Kozimdagi sal oldingi ma'yuslik qayergadir yo'qoladi.

Ziyofatdagi o'tkir ichimliklar boshini qizitgan Kozim endi o'rtada o'ynayotgan qizlardan ko'z uza olmaydi. Raqqosa bois sherik bilan gap qochish asnosida telefon jiringlab, amaki-sining kenja, suyuqli qizi Dilnuraning to'satdan vafot etganligi haqida xabar keladi.

Odatdagi hikoyalarga o'rgangan kitobxon endi Kozimning kayfi tarqalib ketishiga, raqqosa Dilnuradan ko'ngil uzib, qilg'uligiga ming afsuslanib, qarindoshi - uzoqdagi Dilnuraning janazasiga yetib borish uchun intilishiga ishonadi.

Lekin adib hikoyani kitobxon istaganday tugatganda edi, asar jaydari yakun topgan bo'lardi. Kozim raqqosa Dilnura bilan kayfu safoni tanlaydi....

Ulug'bek Hamdam ijod, ijodkorlar haqida fikr yuritar ekan shunday yozgandi:

"Ijodkor o'z yuragining pokligiga ahamiyat bermog'i, binobarin, o'z qalbining bir umrlik sadoqatli qo'riqchisiga aylanmog'i shart. Qorayib ketgan yurak bilan nafaqat zo'r, balki miyona asar yozish ham mushkul. Yozish san'atinining ko'pdan-ko'p siru-asrori tagiga yetgan, tizgan satrlarida nainki stilistik, balki bironta orfografik xato uchramaydigan ijodkorlarimiz bor. San'atlariga tasanno deymiz, lekin ne yoziqki, ularning aksariyatida



mazmun to'piqqa ham chiqmaydi, asardan vulqondek otilib chiqib, o'quvchi yuragiga to'g'ri borib uriladigan badiiy zarb yo'q, xuddi qishda tumanlar aro xira ko'rinib turgan quyoshdek taftsiz, nursiz"

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo`ldosh Qozoqboy. Yoniq so`z. T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti.T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.
3. Quronov Dilmurod. Adabiy jarayonda Mom sindromi. www.ziyouz.uz
4. www.kh-davron.uz